IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22. Issue 02. Sentabr ,2026

YASHIL ENERGIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI

Nilufar To‘rayeva
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida «yashil» loyihalarni moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo‘nalish ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. «Yashil» moliyalashtirish yo‘nalishlari qatoriga yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar, davlat subsidiyalari, xalqaro grantlar hamda xususiy sektor investitsiyalari kiradi. Shuningdek, moliya institutlari va banklar tomonidan ekologik standartlarga javob beradigan loyihalarni saralash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bunda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, mevjud huquqiy-meyoriy baza, hamda xalqaro tashkilotlar ko‘magi muhim rol o‘ynaydi. Mazkur yo‘nalish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishni ham ko‘zda tutadi.

Maqolada BMT ning barqaror rivojlanish konsepsiyasi, uning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha maqsadi va ko‘zda tutilayotgan vazifalari o‘rganilgan. Shu nuqtai nazardan «yashil» loyihalarni moliyalashtirish vositalari, dastaklari va yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy qarashlar tadqiq etiladi, yashil moliyalashning tasnifi ishlab chiqiladi, xorijiy mamlakatlar tajribasida qo‘llanilayotgan «yashil» moliyalash vositalari va yo‘nalishlari tahlil qilinadi. «Yashil» moliyalash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, barqaror biznes modeli, «yashil» loyihalar, «yashil» moliyalashtirish, «yashil» obligatsiyalar, kredit kafolati.

KIRISH

Atrof-muhitning ifloslanishi muammosi hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, barcha mamlakatlarning kelajagi uning yechimiga bog‘liqdir. 2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari ishlab chiqilib, ulardan yettitasi bevosita ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan va hozirgi avlodning kelajak avlodlarga zarar keltirmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini nazarda tutadi [24].

Jahon amaliyotida biznesni rivojlantirishning barqarorligi va uning maqsadlari, deganda quyidagilar tushuniladi:

- mahsulot ishlab chiqarish va ularni yakuniy iste’molchiga yetkazib berish atrof-muhit uchun minimal salbiy oqibatlarga olib keladigan jismoniy va ekologik tizimlarning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat. Bunda barqarorlik - atrof-muhitga yetkaziladigan zararni doimiy ravishda kamaytirishning texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini doimiy izlash va amalga oshirishbilan bog‘liq (1);
- atrof-muhit va odamlar uchun xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va iste’mol qilishni ta’minlash maqsadida resurslardan oqilona foydalanish. Shu bilan birga, barqarorlik ishlab chiqaruvchilarni resurslar va energiyadan samarali foydalanish, barqaror biznes modelini yaratish, asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni

ta’minlash, odamlar va atrof-muhit uchun imkon qadar xavfsiz ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarishdan tortib to iste’mol qilishgacha bo‘lgan biznes zanjirining barcha ishtirokchilari uchun hayot sifatini oshirishni rag‘batlantirishni anglatadi (2);

- hozirgi avlodlar ehtiyojlarini kelajak avlodlarga zarar bermagan holda qondirish. Bunda barqarorlik, deganda jamiyatning tabiiy asosini buzmagan va tsivilizatsiyaning uzluksiz rivojlanishini ta’minlagan holda muvozanatli rivojlanishi nazarda tutiladi (3);
- ishlab chiqarishning ekologik va iqtisodiy samaradorligiga erishish. Bunda barqarorlik tabiat qonunlarini, mumkin bo‘lgan ekologik oqibatlarni hisobga olgan holda biznesning tijorat maqsadlarini amalga oshirishni nazarda tutadi (4).

Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik («yashil») biznes yuritish («yashil» iqtisodiyot) va samarali tarzda amalga oshadigan barqaror faoliyatni tashkil qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasi sifatida tegishli boshqaruv standartlarini joriy etadi [20].

Ushbu standartlar ISO 14000 ekologik menejment tizimi sohasidagi xalqaro standartlarning tarkibiy qismi hisoblanib, bu biznes faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini pasaytirish va Yerning global isish xavfini BMT strategiyasida ko‘zda tutilgan

«2°C» li darajaga qadar kamaytirishni ta’minlaydigan yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni biznesga yuklaydi. Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish 114 trln. AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni talab qiladi. Ekspertlarning baholashlariga qaraganda, ushbu investitsiyalarning atigi oltinchi qismi turli mamlakatlarning davlat moliyasi hisobiga amalga oshirilishi mumkin, qolgan qismi esa ekologik loyihalar («yashil») ni amalga oshirish uchun kompaniyalar tomonidan jalb qilinadigan xususiy investitsiyalar vositasida amalga oshirilishi kerak.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini dialektikaning asosiy qoidalari va tamoyillari tashkil etdi. Mamlakatda yashil loyihalarni moliyalashtirish vositalari va dastaklarini o‘rganishda tizimli yondashuv uslubi, ya’ni moliyalashtirish dastaklari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish uslubiga tayanildi. Ma’lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induktsiya va deduktsiya usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

«Yashil» loyihalarning investitsiya obyektlari sohalari va ular amalga oshirayotgan tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish maqsadlari bo‘yicha turlari 1-jadvalda keltirilgan. Shuni ta’kidlash joizki, «yashil» loyihalarni amalga oshirish iqtisodiy ne’matlarni yaratish uchun biznesni rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish va innovatsion faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv S.Kubba, X.E.Jian-Kui, T.Jiang, V.L.Vang asarlarida ilgari

suriladi [9;8;17]. T.Vu, L.G.Zang, T.Gelarning tadqiqotlari «yashil» loyihalarni moliyalashtirish vositalari va dastaklari hamda risklariga bag‘ishlangan.

1-Jadval

Yashil loyihalarning turlari [16]

Investitsiyalash yo‘nalishlari			Barqaror rivojlanish maqsadlari
Investitsiyalash ob’yekti sohasi	Investitsiyalash ob’yekti	Investitsiyalash maqsadi	
Yadro energetikasi	Elektr energiyasi va issiqlik ta’minoti	Past emissiyali va energiya tejamkor energiya manbalaridan foydalanish	(2)
Gidroenergetika			
Shamol energiyasi			
Geotermal energetika			
Bioenergetika			
	Aqlli filtrlar	Atmosferaga	

Atmosfera	Past karbonli chiqindi ob'yektlari	chiqarilayotgan chiqindilarni kamaytirish va xavfsizligini oshirish	(1)
Suv resurslari	Aqlli tozalash qurilmalari Chiqindilarni biokimyoviy zararsizlantirish	Atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilarni kamaytirish va xavfsizligini oshirish	(1)
Issiqxona samarasi	Past karbonli ishlab chiqarish usullari Tozalash qurilmalar Ozon yoriqlari ko'payishi va kengayishining oldini olish	Карбон изини камайтириш	(1)
Elektr energiyasi iste'moli	Tejamkor energoresurslar	Iste'mol qilinayotgan energiya miqdorini kamaytirish	(3)
Suv iste'moli	Suv resurslarining tejamli iste'moli ob'yektlari	Iste'mol qilinayotgan suv miqdorini kamaytirish	(3)
Yer ob'yektlaridan foydalanish	Yer resurslarini qazib olishning oqilona usullari O'rmon resurslarining foydali qo'llanishi Tog'-kon faoliyatining salbiy oqibatlarini kamaytirish	Yer, o'rmon va tog'-kon resurslari iste'molini kamaytirish	(3)
Transport va transportirovkalash	Transport uchun past karbonli xom ashyo ishlab chiqarish Ekooptimal logistika zanjiri Yoqilg'i resurslarining foydali qo'llanilishini oshirish	Logistika samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish	(4)
IT va telekommunikatsiyalar	Sovutish tizimini takomillashtirish		(2) (3)
	Energiya iste'molini kamaytirish	Axborot uskunalari va xizmatlarining ekologik tozaligini yaxshilash	
Sanoat infratuzilmasi	Infratuzilma ob'yektlarini zamonaviy ekologik talablarga muvofiqlashtirish Infratuzilma ob'yektlari chiqindilarini va resurslardan foydalanishni maqbullashtirish	Infratuzilma ob'yektlari ekologik do'stona munosabatini oshirish	(1) (2)

Ushbu tadqiqotchilar «yashil» loyihalarni amalga oshirish, ayniqsa, xususiy investorlar uchun keng ko‘lamli, bir qator risklar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirishadi:

- siyosiy risklar - davlat tizimida va siyosiy tizimda jiddiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan jamiyatdagi tartibsizliklar;
- makroiqtisodiy risklar - iqtisodiy kon’yunktura va tovar narxlari, foiz stavkalari va valyuta kurslarining o‘zgarishi;
- iqtisodiy risklar - tariflarning o‘zgarishi, qazilma boyliklarga subsidiyalar, bu ekologik loyihaning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiladi [21];
- texnologik va operatsion risklar - loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaning yo‘qligi natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning maqsadli ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlariga erisha olmasligi (masalan, elektr va suv tarmog‘i).
- ta’minot risklari - davlat va boshqa institutlar tomonidan «yashil» loyihalarning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi [11];
- «yashil» loyihalarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘ziga xos risklar - boshqa sohalardagi loyihalarga nisbatan pastroq ichki daromadlilik darajasi (IRR) va uzoqroq chegirmali to‘lov muddati [19].

S.Kriskuolo, S.Menon, Y.Vang, Q.Zilar yuqorida keltirilgan ta’minot va «yashil» loyihalarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘ziga xos risklarni ajratadilar. Shu sababli, xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun «yashil» loyihalarga investitsiyalash risklarini an’anaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan loyihalarga sarmoya kiritish risklari darajasiga qadar kamaytirish kerak. Shu maqsadda jahon amaliyotida «yashil» loyihalarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish uchun xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash vositalaridan foydalaniladi, ular 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

«Yashil» loyihalarni moliyalashtirishda xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash vositalari va dastaklari [16]

Qo‘llab-quvvatlash tadbirlari	«Yashil» loyihalarni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash vositalari va dastaklari	
Davlat tomonidan tartibg a solish	Vositalari	Soliq kreditlari; Standartlarni joriy qilish; «Yashilga qarshi» kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashni bekor qilish.
	Dastaklari	Imtiyozli tariflar;
		Qayta tiklanadigan energiya kvotalari
Davlat moliyalashi	Vositalari	Grantlar; Subsidiyalar; Ekologik dasturlar.
Kreditlash	Vositalari	Loyihaviy moliyalashtirish; Qarz fondlari; «Yashil» obligatsiyalar
	Dastaklari	Imtiyozli kredit stavkalari
Risklarni pasaytirish	Vositalari	Kredit kafolati va kafilligi; Sug‘urtalash; Ayirboshlash kursi va foiz stavkasi o‘zgarishlaridan himoyalash.

Eng avvalo, «yashil» iqtisodiyotga xususiy investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari R.Oven, G.Brennan, F.Lyon asarlarida o‘rganilgan

[15]; faqat ekologik toza texnologiyalardan foydalanadigan «yashil» kompaniyalar ulushining o‘sishi; atrof-muhitni muhofaza qilish uchun biznes va jamiyatning mas’uliyatini oshirish bo‘yicha davlat siyosatining muhimligini ta’kidlash lozim.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari F.Tagxizaden - Xesari, N.Yoshinoning asarlarida tadqiq etilgan [18]. Moliyaviy rivojlanish institutlari tijorat banklariga qaraganda ancha past foiz stavkalarida va uzoqroq muddatga kreditlar ajratishi masalalari S.Glomasrod, T.Vei tadqiqotlarining mavzusini tashkil etadi [7]. Tijorat banklari, ularning davlat kompensatsiyasi va imtiyozlari evaziga ekoinnovatsiyalar uchun arzonroq kreditlar berishi bilan bog‘liq masalalar V.V.Arxipovaning tadqiqotlarida o‘rganilgan [4]. Chet elda faol rivojlanayotgan

«yashil» obligatsiyalar O.S.Miroshnichenko, N.A.Mostovayalarning tadqiqot mavzusini tashkil etadi [12].

NATIJALAR

So‘nggi yillarda barqaror rivojlanish tamoyillari global darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ekologik barqarorlik, energiya tejamkorligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq “yashil loyihalar” дунё мамлакатлари диққат марказида турибди. Ushbu yo‘nalishda moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish, xususiy va davlat sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham bu borada izchil siyosat yuritib, yashil iqtisodiyotga o‘tishni strategik maqsad sifatida belgilab olgan. Davlat tomonidan qabul qilingan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar, milliy strategiyalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar - bunga yaqqol misoldir. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalar, suv resurslarini tejash, havo sifati va bioekotizimni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslar ushbu sohada amalga oshirilayotgan muhim ishlar sirasiga kiradi.

Mamlakatimizda yashil loyihalarni moliyalashtirishning quyidagi vositalari mavjud:

Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan hamkorlik: O‘zbekiston Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va Global yashil o‘sish instituti kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilib, yashil loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kreditlar va grantlar jalb etmoqda. Masalan, KOICA texnik ko‘magi doirasida 6,5 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish: Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik «yashil energiya» stansiyalarini qurish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish va aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish orqali yashil loyihalar moliyalashtirilmoqda.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash dasturi: 2030 yilgacha mo‘ljallangan ushbu dastur doirasida issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan ajratmalarini 2010 yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish kabi maqsadlar belgilangan.

Davlat dasturlari va strategiyalari: «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi va

«Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish nazarda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan oshirish rejalashtirilgan.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi: 2025 yil 1 martdan boshlab, daraxt va buta ko‘chatlarini ekishni tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida «Yashil to‘lov» platformasi joriy etiladi. Shuningdek, «Yashil xayriya jamg‘armasi» tashkil etilib, aholini daraxt va buta ko‘chatlarini ekishga keng jalb qilish ko‘zda tutilgan.

«Yashil moliyalashtirish» milliy dasturi: 2025 yil 1 dekabriga qadar «yashil moliyalashtirish» milliy dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grantlar ajratishni nazarda tutadi (3-jadval).

3-jadval O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish yo‘nalishlari va manbalari [1]

Yo‘nalishlari va manbalari	Tavsifi
Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, KOICA, Global yashil o‘sish instituti kabi tashkilotlar tomonidan grantlar va imtiyozli kreditlar ajratiladi
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish	Davlat-xususiy sheriklik asosida quyosh va gidroelektr stansiyalari qurilishi va xonadonlarda quyosh panellari o‘rnatilishini rag‘batlantirish.
«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish dasturi	2030 yilgacha issiqxona gazlari ajratmasini 35% ga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 15 GVt ga yetkazish kabi maqsadlar.
Davlat dasturlari va strategiyalari	«O‘zbekiston-2030» strategiyasi, «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot» yili davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

Jumladan, 2022 yil davomida Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) tomonidan O‘zbekistonning «yashil» iqtisodiyotga o‘tishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 150 million yevro miqdorida kredit ajratgan. «Yashil makon» harakati doirasida davlat budjeti mablag‘larining 50 foizi «Ochiq byudjet» portali orqali jamoatchilik ishtirokida sarflanishi belgilangan. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha innovatsion ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun mablag‘lar ajratiladi.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha davlat dasturi doirasida moliyalashtirish xarajatlari ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari va Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

O‘zbekistonda birinchi marta 4,25 trillion so‘mlik yashil suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi. Bu Markaziy Osiyodagi birinchi yashil suveren obligatsiyalar hisoblanadi. 2025 yil fevral oyida 1,5 milliard dollarlik yangi suveren xalqaro obligatsiyalar jahon moliya bozorlarida joylashtirildi. Yashil obligatsiyalar bozori hozircha rivojlanish bosqichida bo‘lsada, undagi imkoniyatlar katta (4-jadval).

4-jadval

O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar bozori [1]

Obligatsiyalar turi	Qiymati	Joylashtirilgan joy
Yashil suveren obligatsiyalar	4,25 trln.so‘m	London fond birjasi
Suveren xalqaro obligatsiyalar	1,5 mlrd. doll.	Jahon moliya bozorlari

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YUNEP, BMT) 2030 yilgacha barqaror rivojlanishga o‘tishning uchta stsenariysini taklif qiladi:

- Biznesning odatdagi stsenariysi atrof-muhitning hozirgi holatini hisobga olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida infratuzilma, texnologiyalar, kadrlar malakasi, siyosat va biznes modellarini yangilashga investitsiyalarni nazarda tutadi;
- 2°S li stsenariy barqaror rivojlanishning ekologik maqsadlariga erishish va sayyoradagi o‘rtacha haroratni sanoat inqilobigacha bo‘lgan davrdagi o‘rtacha haroratga teng darajaga tushirish istagini inobatga olgan holda Biznesning odatdagi modelini (Business as usual) amalga oshirishni nazarda tutadi;
- Incremental investment stsenariysi barqaror rivojlanishning ekologik maqsadlariga erishish bilan birga, Biznesning odatdagi modelini (Business as usual)

«2°S» modeliga olib chiqishni nazarda tutadi.

Xarajatli stsenariy odatdagi Biznes (Business as usual) bo‘lib, unga ko‘ra, 2010 yildan 2030 yilgacha bo‘lgan davrda investitsiya ehtiyojlarining eng katta ulushi iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlariga to‘g‘ri kelishi kerak: transport va transport infratuzilmasi (36,7 trillion AQSh dollari, bu barcha investitsiya ehtiyojlarining 32 foizini tashkil etadi), suv sektori (26,4 trillion dollar va 23 foiz) va sanoat sektori (18,9 trillion AQSh dollari va 17%). Ushbu tarmoqlar energiya sig‘imli va ekologik jihatdan intensiv tarmoqlar qatoriga kiradi, bu esa atrof-muhit muhofazasiga investitsiyalarga katta ehtiyoj tug‘diradi.

2030 yilga qadar «2°S» li ssenariyni amalga oshirish «Elektr energiyasini uzatish va elektr energetikasini rivojlantirish» sektoriga uning atrof-muhitga sezilarli salbiy ta’siri tufayli 429 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Incremental investment stsenariysini amalga oshirish iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlariga eng katta investitsiyalarni talab qiladi: sanoat (6,6 trillion dollar), transport va transport infratuzilmasi (3,7 trillion dollar), elektr energetikasi (2,8 trillion dollar).

Shuni ta’kidlash kerakki, barcha stsenariylarni amalga oshirish elektroenergetika sanoatiga, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini (QTEM) ishlab chiqarish va ulardan foydalanishga ta’sir qiladi. Agar ilgari qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha yetakchi bo‘lgan davlatlar haqida gapirish odatiy hol hisoblangan bo‘lsa, endilikda qayta tiklanadigan elektr energiyasidan (renewable electricity) foydalanishni o‘zlarining korporativ mas’uliyatining bir qismi, deb hisoblaydigan ishlab chiqarish kompaniyalari haqida gapirish o‘rinlidir. Shunday qilib, 2017 yilda Clean Edge tashkiloti Qo‘shma Shtatlarda ro‘yxatga olingan 37 ta korporatsiyani o‘z ichiga olgan The Corporate Clean Energy Leaders (CCEL) Universe ro‘yxatini tuzdi [22].

Ishlab chiqarishda 100% qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan KOHL’s chakana savdo tarmog‘i, Microsoft, Apple (93%), Facebook, Google (har biri 35%dan) va Goldman Sachs (38%) qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha yetakchi kompaniyalar hisoblanishadi. Xorijda biznes yuritishning yuqori ekologik madaniyatiga ega bo‘lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari chakana savdo (Retail), moliya sektori (finance), ishlab chiqarish sektori (manufacturing), logistika (logistics), dasturiy va bulutli ta’minot ishlab chiqarishi (software/cloud) hisoblanadi.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish loyihalarning hayotiy sikli davomida qo‘shimcha investitsiyalash ehtimoli yuqori bo‘lgan joriy va istiqboldagi muhim investitsiyalarni talab qiladi. Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat davlatlari «yashil» loyihalarni, asosan, davlat tomonidan moliyalashtirishdan voz kechishga intilmoqda va bu sohaga xususiy kapitalni jalb qilishni faol rag‘batlantirmoqda [5]. Mutaxassislarning fikricha, davlat va xususiy sarmoya nisbati 1:5 bo‘lishi kerak. Xitoyga kelsak, u davlat budjetidan 10-15% va xususiy mablag‘lar hisobidan 85-90% miqdorida mahalliy «yashil» loyihalarni moliyalashtirish qoidasiga amal qilmoqda [23].

MUHOKAMA

Shunday qilib, 2019-yilning birinchi choragida butun dunyo bo‘ylab «yashil» obligatsiyalar emissiyasi 47,9 milliard dollarga yetdi va aniq o‘sish tendensiyasi bilan 2018-yilning birinchi choragidagi savdo hajmidan 42 foizga oshdi. Ushbu summaning deyarli chorak qismi yangi emitentlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalardan iborat (17 ta mamlakatdan 43 ta yangi bozor ishtirokchilari) [25].

«Yashil» obligatsiyalar chiqarishda yetakchilar AQSh va Fransiya hisoblanadi. Shu bilan birga, Xitoy, Hindiston [10], Fidji, Nigeriya va Malayziya kabi mamlakatlar ushbu bozorga faol ravishda kira boshladilar [25]. «Yashil» obligatsiyalar, qoida tariqasida, ijobiy ekologik va/yoki iqlim maqsadlariga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish va eko-investitsiyalar uchun kapital xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi [6].

Hozirgi vaqtda «yashil» loyihalarni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng muhim chora-tadbirlar, bizning fikrimizcha, quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1) Moliyalashtirishda keng qo‘llaniladigan imtiyozli kreditlash:

- chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlash bo‘yicha «yashil» loyihalar (AQSh, Frantsiya, Avstriya, Finlyandiyada);
- energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalar (AQShda);
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish (Germaniyada);

2) Moliyalashtirishda foydalaniladigan kredit kafolatlari:

- energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalar (AQShda);
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish (Germaniyada)

Chet elda imtiyozli kreditlash va kredit kafolatlarini taqdim etish quyidagilar tomonidan amalga oshirilmoqda:

- moliyaviy rivojlanish institutlari tijorat banklariga qaraganda ancha past foiz stavkalarida va uzoqroq muddatga kreditlar ajratishi.

Shunday qilib, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda YeTTB) va Yevropa investitsiya banki (keyingi o‘rinlarda YeIB deb yuritiladi) quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarga past foizli kreditlar beradi;

- tijorat banklari, ular davlat kompensatsiyasi va imtiyozlari evaziga ekoinnovatsiyalar uchun arzonroq kreditlar berishi.

Buyuk Britaniya tajribasiga e’tibor qaratish lozim, u yerda 2012 yilda hukumat darajasida «yashil» loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun Yashil investitsiya banki (GIB) tashkil etilgan bo‘lib, u infratuzilma loyihalariga xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun quyidagi vositalardan foydalanadi: imtiyozli kreditlash, kompaniyalarning o‘z kapitaliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, investitsiyalarni moliyalashtirish.

2017-yil 31-may holatiga ko‘ra, bank quyidagi sohalarda umumiy qiymati 12 milliard funt sterlingdan ortiq bo‘lgan 100 ta yashil loyihani moliyalashtirishda ishtirok etdi: shamol energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash va bioenergetika, energiya samaradorligi va quruqlikda qayta tiklanadigan energiya. Buyuk Britaniyada atrof-muhitga davlat xarajatlarining 1% ga o‘sishi korxonalar tomonidan «yashil» investitsiyalarning yiliga o‘rtacha 5,28% ga o‘sishiga olib keladi.

3) Chet elda faol rivojlanayotgan «yashil» obligatsiyalar.

Yashil obligatsiyalar yuqori rivojlanish potensialiga ega vositalar hisoblanadi, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga qaraganda emitentlar uchun arzonroq va investorlar uchun barqaror uzoq muddatli daromadlar, bozordagi obligatsiyalar narxini prognoz qilish va xavfni kamaytirish kabi jozibali xususiyatlarga ega.

XULOSALAR

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish jahon hamjamiyatini rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biridir, chunki u nafaqat tabiatni asrash imkonini beradi, balki ushbu sohada ishtirok etayotgan raqobatdosh kompaniyalarga ustunlik beradi. Aksariyat xorijiy davlatlar o‘z oldiga barqaror rivojlanishning ekologik maqsadlariga erishish vazifasini qo‘ygan bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun xususiy investorlar tomonidan

«yashil» loyihalarni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, vositalardan foydalanilmoqda. Mavjud xorijiy tajriba «yashil» loyihalarga sarmoya kiritishning asosiy yo‘nalishlarini, ularning ustuvorligini aniqlash, shuningdek, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O‘zbekiston-2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida». 30.01.2025 yildagi PF-16-son, https://lex.uz/docs/7369703
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son, https://lex.uz/docs/-6303230
3. O‘zbekiston Resublikasi Prezidentining Qarori. 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son, https://lex.uz/docs/-4539502
4. Архипова В.В. «Зеленые финансы» как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал ВШЭ. 2017; 21:312-332. Arhipova
5. V. V. Green finance as a means to solve global problems. Ekonomicheskij zhurnal VSHE= Economic Journal of HSE. 2017; 21;312-332. (In Russ.).
6. Bon-Gang H. Performance and improvement of green construction projects. Management strategies and innovations. Butterworth-Heinemann; 2018. 358 p.
7. Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. Journal of Cleaner Production. 2019;127-135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022
8. Glomsrød S., Wei T. Business as unusual: the implications of fossil divestment and green bonds for financial flows, economic growth and energy market. Energy for Sustainable Development. 2018; 44:1-10.
9. Jian-Kui H.E., Jiang T., Wang W. L. «Green finance» and the sustainable development of economy. Ecological Economy. 2006
10. Kubba S. Green construction project management and cost oversight. Architectural Press; 2010. 560 p.
11. Köhn. D. Greening the financial sector: how to mainstream environmental finance in developing countries: Springer; 2012. 249 p.
12. Criscuolo C., Menon C. Environmental policies and risk finance in the green sector: cross-country evidence. Energy Policy. 2015; 83:38-56.
13. Мирошниченко О.С., Мостовая Н.А. «Зеленый» кредит как инструмент
14. «зеленого» финансирования. Финансы: теория и практика. 2019; 23(2):31-43. DOI: 10.26794/2587-5671-2019-23-2-31-43 Miroshnichenko O.S., Mostovaya N.A.
15. «Green» loan as a tool for «green» financing. Finansy: teoriya i praktika = Finance: theory and practice. 2019;23(2):31-43. (In Russ.). DOI: 10.26794/2587-5671-2019 23-2-31-43
16. Olimova, N. (2024). Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari. Yashil iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(1).

17. Olimova, N. X. (2025). Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida xalqaro tajribalardan foydalanish. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(30), 242-247.
18. Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. Current Opinion in Environmental Sustainability. 2018; 31:137-145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004
19. Раков И.Д. Механизмы поддержки финансирования «зеленых» проектов: опыт стран. Актуальные проблемы экономики и права. 2017;11(2):67-
20. 82. DOI: 10.21202/1993-047X.11.2017.2.67-82 Rakov I. D. Support mechanisms for financing green projects: country experiences. experiences. Aktual'nye problemy ekonomiki i prava = Actual problems of economics and law. 2017;119(2):67-82. (In Russ.). DOI: 10.21202/1993-047X.11.2017.2.67-82
21. Седаш Т.Н., Тютюкина Е.Б., Лобанов И.Н. Направления и инструменты финансирования «зеленых» проектов в концепции устойчивого развития экономики. Экономика. Налоги. Право. 2019;12(5):52-60. DOI: 10.26794/1999-849X-2019-12-5-52-60
22. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The way to induce private participation in green finance and investment. Finance Research Letters. 2019;31:98-103. DOI: 10.1016/j.frl.2019.04.016
23. Wang Y., Zhi Q. The role of green finance in environmental protection: two aspects of market mechanism and policies. Energy Procedia. 2016; 104:311-316.
24. Wagner G., Weitzman M. Climate shock: the economic consequences of a hotter planet. Oxford: Princeton University Press; 2016. 272 p.
25. Wu T., Zhang L.G., Ge T. Managing financing risk in capacity investment under green supply chain competition. Technological Forecasting and Social Change. 2019; 143:37-44.
26. Clean Energy Procurement U. S. Corporate Leaders, Trends, and Resources URL: https://cleanedge.com/sites/default/files/ CCEL2pgr_final.pdf (дата обращения: 08.07.2019).
27. Establishing China's Green Financial System: Report of The Green Finance Task Force. People's Bank of China (PBC). United Nations Environment Programme (UNEP). 2015. URL: https://www.unepfi.org/news/establishing-chinas-green f inancial-system-report-of-the-green-finance-task-force/(дата обращения: 08.07.2019).
28. Goals to Transform Our World. URL:https://www.un.org/ sustainabledevelopment / (дата обращения: 10.07.2019).
29. Green Finance for Developing Countries: Needs, Concerns and Innovations. United Nations Environment Programme (UNEP). 2016. URL: http://unepinquiry.org/wp-content/ uploads/2016/08/Green_Finance_for_Developing_Countries.pdf.